

INGLIZ TILIDA LINGVOKULTUROLOGIYANING YANGI TA'LIMOT SIFATIDA RIVOJLANISHI

Nosirova Shoiraxon Ulug'bek qizi

PhD student of Fergana State University

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi kunimizning e'tiborga molik sohalaridan biri sifatida ko'plab ilmiy tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qilayotgan zamonaviy lingvistikaning yangi bir ta'limoti bo'lgan lingvokulturologiya sohasi va uning ingliz kontekstlaridagi ahamiyati borasidagi ma'lumotlar bilan ulashadi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, madaniy lingvistika, amaliy etnolingvistika, madaniyatlararo aloqalar, antroposentrik paradigma.

Har bir inson milliy an'analarni o'z ichiga olgan milliy madaniyatning, til, tarix va adabiyotning bir qismidir. Kundan kunga xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy va ilmiy aloqalar yaqinlashib, yaxshilanib bormoqda. Shu o'rinda, madaniyatlararo aloqalar va ularning o'ziga xosliklarini o'rganadigan ilmiy izlanishlar, tilning madaniyat va lingvistik shaxs bilan o'zaro bog'liqligi bugungi kunning muhim masalalardan biri sifatida qaralishi ham bejiz emas.

Barchamizga ma'lumki, til ijtimoiy hodisa hisoblanadi va shu bilan birgalikda o'zi foydalaniladigan jamiyat madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi va sayqallanib boradi. Til va madaniyatshunoslikning o'rtasida vujudga kelgan tilshunoslikning yangi sohasi bo'lgan lingvokulturologiyaga mustaqil fan sifatida qaralishi ham o'rinlidir. Bu yangi ta'limotning vujudga kelishiga avvalambor davlatlararo, millatlararo turli sohalardagi jadal hamkorliklar, xalqaro iqtisodiy, diplomatik, siyosiy, kommunikativ va madaniy aloqalarning kuchayib borishi katta turtki bo'ldi. Tilni tadqiq etishda dastlabki ilmiy yondashuv hisoblangan qiyosiy-tarixiy paradigma va hatto hozirgi davrgacha darsliklar, ilmiy manbalar, akademik grammatikalar, turli xildagi ma'lumotnomalar va boshqa ke'ng ko'lamlı ishlar yaratilishiga asos bo'lib xizmat qilib kelayotgan sistem-

struktur paradigmalardan keyin ko'pchilik tomonidan qo'llab quvvatlanib antroposentrik yondashuv ham ilmiy maydonga chiqib kelmoqda. An'anaviy paradigmalarda ichidagi nisbatan eng yoshi hisoblangan antroposentrik paradigma asosiga qurilgan lingvomadaniyatshunoslik tilni insonda, insonni tilda tahlil qilishni ilgari suradi. Boshqacha qilib aytganda tadqiqot obyekti subyektda o'rganiladi.

Tilning bilish jarayonidagi ahamiyati va tilning turli kategoriyalari insonning fikrlash darajasiga, shunindok olamni turlicha konseptuallashtirishlariga ta'sir qilishi haqidagi g'oyalarni Shimoliy Amerika hindulari tilini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan amerikalik olimlar F.Boas, E.Sepir va B.L.Uorf ilgari surishgan[1]. Ular olg'a surgan g'oya lisoniy mansublik gipotezasi deb atalib, til bilish jarayonidagi eng muhim omil ekanligini ta'kidlashgan. Shu sababli ham turli tillarda turlicha kategoriyalar mavjud bo'lib, ma'lum bir tilda so'zlashuvchilar olamni turlicha konseptuallashtirishadi. Bunga misol tariqasida E.Sepir, B.L.Uorflar tomonidan olib borilgan izlanishlarning bir mahsulini keltirib o'tishimiz mumkin[2]. Unda Eskimo tilida "erib ketayotgan qor", "ayni paytda yog'ayotgan qor" kabi ma'nolarni anglatuvchi, tag zamirida "qor" ma'nosi turgan ko'pgina so'zlar nutqlarida faol qo'llanilgan. Ingliz tilida esa yuqoridagi ma'nolarni anglatish uchun birgina "snow"(qor) so'zidan foydalanilgan xolos. Shu sababli ham olimlar ta'kidlab aytishganki, yangi bir xorijiy tilni o'rganish yangicha dunyoqarash va fikrlashga yo'l ochib beradi. Ularning ilgari surgan nazariyalari hozirgi zamonaviy tilshunoslikning bir qator sohalariga ham asos bo'lib xizmat qilmoqda. "Til bu jamiyatning madaniy o'tmishiga bir kalit va ijtimoiy haqiqatlarga bir yo'l boshchidir"- degan edi E.Sepir. davrining taniqli lingvist olimi R.M.Brown esa tilni madaniyatning xaritasiga o'xshatgan va bu xarita o'sha xalqning qayerdan kelib, qayerga ketayotganligini ko'rsatib turadi[3].

XX asr o'rtalarida amerikalik tilshunos olim D.Xaymz til va nutqni antropologik planda o'rganish" masalalarining nazariy va metodologik asoslarini yaratdi. U tilshunoslik va antropologiya haqida o'z fikrlarini yuritarkan tilshunoslik til haqidagi bilimlarni til nuqtayi nazaridan o'rgansa,

antropologiyaning asosiy vazifasi til haqidagi bilimlarni inson nuqtayi nazaridan tadqiq etishdir degan fikrlarini bayon etdi. A.Duranti ham lingvistik antropologiya haqida fikr bildirib, u tilshunoslikning boshqa sohalaridan atrofimizdagi moddiy borliqni har bir shaxs o'z dunyoqarashi jihatidan mushohada qilinishiga diqqat qaratgan.

XX asrda G.Brutyman tomonidan yaratilgan "lisoniy to'ldiruvchilik gipotezasi" va mazkur asrning oxirlari va yangi asrning boshlarida A.Vierzbikaning "lisoniy universallik gipotezasi" ham til o'zida madaniyat va madaniy o'ziga xosliklar haqida ma'lumot berishi haqidagi nazariyalarga bo'lgan katta qiziqishning natijasidir. Ayniqsa, Vierzbika tomonidan yozilgan semantik universallar va turli tillardagi turlicha anglashlar borasidagi bir qator asarlar ham e'tiborga molikdir. "Ingliz tili:Ma'no va Madaniyat"(2006), "tillar va madaniyatlararo emotsiyalar: Bir xillik va Xilma-xillik"(1999), "Kalit so'zlari orqali madaniyatlarni tushunish:ingliz, rus, nemis, yapon va polsha madaniyati"(1997), "Madaniyatlararo pragmatika: Inson muloqotining semantikasi"(1991) shular jumlasidandir.

XX asrning oxirgi o'n yilligida ham ingliz tilshunosligida lingvokulturologiya sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar salmog'i yanada ortdi. Bunga misol qilib 1990-yilda D.Lyusi tomonidan yozilgan "Language Diversity and Thought (Lisoniy xilma-xillik va tafakkur) va 1996-yilda yozilgan P.Liningning "Whorf Theory Complex" (Uorf teoriyalari yig'indisi) kitoblarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Hozirgi kunda ham ushbu soha katta ilm ahlining e'tiborini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Xususan, ingliz tilida so'nggi o'n yillikda mazkur yangi ta'limot bir qator ishlarga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Mizin va Korostenskining 2019-yilda nashrdan chiqqan "G'arb Madaniy Lingvistikasi" ishida lingvokulturologiya va lingvokulturologik degan atamalar izohiga alohida to'xtalib o'tilgan[4]. Ushbu terminlar asl kelib chiqishidan grek va lotin o'zaklariga borib taqalib, bir qarashda va so'zlar yig'indisidan kelib chiqqan holda ushbu yo'nalish madaniyat, til va o'y-

fikrlar majmui ekanligi tushuniladi. Lekin shu o'rinda Maia Kikvadzening 2018-yilda nashr ettirgan "Samxruli (janubiy) o'simliklarga oid frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarining tadqiqi" maqolasini misol tariqasida keltirishimiz mumkin[5]. Ushbu ishning sarlavhasida ishlatilgan "lingvokulturologik" degan atama butun boshli maqolaning hech qayerida ko'zga tashlanmaydi va eng qizig'i ishning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ham biror bir lingvokulturologiyaga oid manba ko'rsatib o'tilmagan. Bu orqali olim o'simlik nomlari bilan ishlatilgan frazeologik birliklarni o'rganish hali ko'p tarmoqli ekanligini ya'ni, ularni lingvokulturologik, psixolingvistik va sotsiolingvistik nuqtayi nazarlaridan ham tadqiq etish istiqbollari maavjudligini ta'kidlamoqchi ham bo'lgandir. Biz hozirda ko'p martalab murojaat qilayotgan lingvokulturologiya termini rus ilm-fan olamida yaxshigina ma'lum va mashhur bo'lib, g'arb ilmiy tadqiqotlar olamida kam hollarda ko'rinadi va shu sababdan ham Kikvadzening ishida aynan mazkur termin ishlatilmagan. Shu o'rinda Kikvadze Gruziya davlat universiteti bilan bog'liqlikda ish olib borayotgan gruzin filologi ekanligini esda tutish kerak.

G'arb madaniyatida mazkur soha rivojiga o'z hissasini qo'shgan yana bir taniqli tilshunos J.V.Anderhill bo'lib, u lingvistik dunyoarash va uning individuallarda aks etishi o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilgan. Uning "Dunoqarashlarni yaratish:Til, ideologiya & metafora"(2013) va "Etnolingvistika va madaniy konseptlar:haqiqat, muhabbat, nafrat & urush" asarlari etnolingvistika, madaniyatlararo lingvistik tahlil va madaniy konseptlar masalalari bilan shug'ullanadi[6].

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi kunimizning yangi ta'lim sohalaridan bo'lgan lingvokulturologiya deyarli barcha tillar tadqiqida, shuningdek, ingliz tili tilshunosligida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning o'rganilishi va tadqiqotlari ham bir talaygina bo'lib, hozirda ham bu ishlar jadal davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boas F. Race, Language, and Culture. – Chicago: University of Chicago Press, 1995
2. Whorf B. Language, Thought, and Reality; Selected Writings. – New York, Harpess Publishing, 2013
3. Ashurova D.U., Galieva M.R. Text Linguistics. – Tashkent: Turon-Iqbol, 2016. –324 p.
4. Mizin, K., Korostenski, J. “Western” Cultural Linguistics and “Post-Soviet” Linguoculturology: Causes of parallel development. Лінгвістичні студії, 2019, № 37, p. 7–13. DOI 10.31558/1815-3070.2019.37.1.
5. Kikvadze, M. Linguoculturological aspects of the study of Samkhruli (Southern) floronymic phrasal units. In : O. Soutet, S. Mejri and I. Sfar (eds.). La phraséologie: théorie et applications. Paris, Champion, 2018, p. 183–193.
6. Underhill J. W. Ethnolinguistics and Cultural Concepts: Truth, Love, Hate & War.– Cambridge: Cambridge University Press, 2015. – 264 p.